


I. YALPI HUDUDY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 18 783,3 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,7 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 111,6 % ni tashkil qildi.












O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 5,6 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



Yalpi hududiy mahsulot


(2025- yil yanvar-mart holatiga, % taqqoslama narxda)

Ko'rsatkichlar	mlrd so'm		2024- yil nisbatan, % hisobida
	2024-yil	2025-yil	
 Yalpi hududiy mahsulot, jami	15 768,5	18 783,3	106,7
shu jumladan:			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 436,8	18 356,5	106,6
 Mahsulotlarga sof soliqlar	331,7	426,8	112,4
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 436,8	18 356,5	106,6
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 237,4	2 597,7	104,2
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 384,0	5 345,1	109,9
 Sanoat	3 162,7	3 891,1	107,4
 qurilish	1 221,3	1 454,0	116,5
 Xizmatlar	8 815,4	10 413,7	105,6
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 884,6	3 406,4	108,3
 tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	1 239,6	1 664,6	112,9
 boshqa xizmatlari	4 691,2	5 342,7	102,0

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati- 104,2 %, (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 14,2 %), sanoatda – 107,4 % (21,2 %), qurilishda – 116,5 % (7,9 %), xizmatlar sohasida – 105,6 % ni (56,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,3 % (18,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,9 % (9,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,0 % dan (29,0 %) iborat bo'ldi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,7 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 %ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 14,2 %ni, sanoat tarmog'i 21,2 %ni, qurilish 7,9 %ni va xizmatlar sohasi 56,7 %ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2025-yilning yanvar-mart oylarida 56,7 %ni tashkil etdi va 2024- yil (57,1 %) bilan taqqoslanganda 0,4 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

(yanvar-mart holatiga, jamiga nisbatan foizda)




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 18,6 %ni (2024- yil- 18,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 9,1 %ni (8,0 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar– 29,0 %ni (30,4 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi


(yanvar-mart, jamiga nisbatan, foizda)



Joriy yilning yanvar-mart oylari davomida dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 4 522,3 ming so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning (3 873,8 ming so‘m) mos davriga nisbatan 4,6 %ga o‘tdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 68,3 %ni tashkil qildi.

2024-2025- yillarning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-mart oyida YaHM deflyatori indeksi 2024-yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 111,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,6 % va xizmatlar sohada – 111,9 % ni qayd etildi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-mart holatiga, %da


2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 68,3 %ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida 69,2 %) tashkil qildi.



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 5,6 %ni tashkil etdi.

YaIM da Farg'ona viloyatining ulushi, foizda



Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar–mart holatiga

Hududlar	YaHM mlrd so‘m			Aholi jon boshiga, ming so‘m		
	2024- yil	2025 - yil	%	2024- yil	2025- yil	%
O‘zbekiston Respublikasi	276 923,5	333 592,7	106,8	7 508,5	8 867,3	104,7
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	8 758,8	9 798,8	104,3	4 366,9	4 821,2	103,0
Andijon	14 825,8	17 927,1	105,8	4 358,3	5 170,0	103,8
Buxoro	12 388,0	14 599,0	106,0	6 050,9	7 019,1	104,4
Jizzax	7 326,2	8 833,7	107,4	4 848,8	5 732,8	105,3
Qashqadaryo	13 870,9	16 099,0	105,4	3 886,7	4 413,5	103,1
Navoiy	22 501,0	29 963,6	110,5	20 880,7	27 314,8	108,5
Namangan	11 624,2	13 836,5	106,4	3 782,7	4 409,0	104,2
Samarqand	17 438,0	20 324,6	106,3	4 134,3	4 719,6	104,1
Surxondaryo	9 062,4	10 445,2	105,0	3 141,9	3 537,5	102,6
Sirdaryo	5 242,0	5 681,9	99,5	5 722,8	6 092,1	97,7
Toshkent v.	28 230,3	32 213,9	106,6	9 228,9	10 341,4	104,7
Farg‘ona	15 768,5	18 783,3	106,7	3 873,8	4 522,3	104,6
Xorazm	9 174,6	10 851,5	106,8	4 589,1	5 329,9	104,9
Toshkent sh.	57 623,9	69 905,4	109,9	18 895,7	22 401,2	107,4

YaHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,6 f.p. (2024-yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,5 f.p. (2024-yilning yanvar-martida – 1,3 f.p.), qurilish tarmog‘i – 1,3 f.p. (2024-yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi– 3,1 f.p. (2024-yilning yanvar-martida – 2,9 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2024-yilning yanvar-martida– 0,2 f.p.)ga ko‘paydi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida YaHM deflyatori indeksi 2024-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 111,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda – 114,6 % va xizmatlar sohasida – 111,9 % qayd etildi.